XALQ DEPUTATLARI BAXMAL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-039-3-44-K/24 Baxmal tumani

Baxmal tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbO‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga, xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Jizzax viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01-20-08-02-39/187-sonli xatini inobatga olib hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning 2024-yil 26-dekabrdagi DKQ 03-01/29-24-sonli qarorini muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 16^1-, 16^2- va 24 -moddalariga muvofiq Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-son Qonuni hamda xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-4-032-3-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Baxmal tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **105 546 246,0 ming so‘m** va xarajatlari esa **105 546 246,0 ming so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Baxmal tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **571 000,0 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda 2025-yilda umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori 2-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq, shuningdek tuman budjeti yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 355 244,0 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 6-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (I.Kenjayev), tuman soliq inspeksiyasi (J.Axbutayev) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (A.Abdukarimov), «Baxmal hayoti» gazetasi bosh muharriri (X.Mirzayev) bilan birgalikda

tumandagi ommaviy axborot vositalarida Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni «Baxmal hayoti» gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

9. Ushbu qaror 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Baxmal tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (E.Kattabekov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i N.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi ERGASHEV AZIZ MAMARASULOVICH

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyati Baxmal tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent reja	Mahalliy reja
JAMI		**142 798 304**	**105 546 246**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan Foyda solig‘i	1 071 000	0
2	Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq	9 498 000	9 498 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	64 003 000	55 042 580
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	16 500 000	
5	Aksiz solig‘i jami	1 781 880	1 746 242
5.1	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	1 781 880	*1 746 242*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*1 304 000*	1 304 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 851 000	3 851 000
8	Noruda Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*420 000*	420 000
9	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	3 000	3 000
10	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	885 000	885 000
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	8 085 981	8 085 981
12	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	23 809 443	23 809 443
13	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*1 308 000*	808 000
14	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	93 000	93 000
16	Yig‘imlar	1 419 000	
17	Davlat boji	5 172 000	

18	Jarimalar	3 594 000	

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yilda umumdavlat soliqlaridan Baxmal tuman mahalliy budjetiga ajratmalar me'yori

foiz hisobida

№	Soliq turlari	Hududlar nomi	Soliq to'lovchilar	Ajratma me'yori
1	**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	86%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	14%
2	**Foyda solig'i*****	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	100%
3	**Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
4	**Pivo**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	0%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
5	**Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	98%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	2%
6	**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
7	**Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%

		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
8	**Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
9	**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**	Tuman budjetiga	YST	100%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	0%
			HST	0%
10	**Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar**	Tuman budjetiga	YST	0%
			HST	100%
		Viloyat budjetiga	YST	100%
			HST	0%
11	**Aylanmadan soliq**	Tuman budjetiga		100%
		Viloyat budjetiga		0%
12	**Davlat boji**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
13	**Jarima**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
14	**Yig‘imlar**	Tuman budjetiga		0%
		Viloyat budjetiga		100%
15	**Davlat aktivlarini sotishdan tushum (Xususiylashtirish)**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%
16	**Mulk va yer huquqini auksion orqali sotishdan tushum**	Tuman budjetiga		50%
		Viloyat budjetiga		50%

Izoh: HST - Hududiy soliq to‘lovchilar, YST - Yirik soliq to‘lovchilar

* *Mazkur soliq turlaridan tashqari boshqa daromadlar (3450950, 3450960 va boshqalar) Iqtisodiyot va moliya vazirligi belgilab bergan tartibda shahar (tumanlar) va viloyat byudjetlariga ajratma qilinadi.*

** *Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari.*

*** *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatgi amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari*

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025-yil uchun Jizzax viloyati Baxmal tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
	Xarajatlar miqdori, jami	**105 546 246,0**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*28 630 623*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*5 236 269*
2	Madaniyat bo‘limi	*2 740 268*
	shundan:	
	6-son Musiqa maktabi	*1 664 397*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 237 953*
4	Sport bo‘limi	*4 051 505*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 382 691*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 262 383*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*907 782*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 146 771*
9	Hokimiyat	*33 518 825*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*63 449*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*23 100*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*21 507 754*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 120 680*
	Zahira jamg‘armasi	*1 355 244*
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*868 041*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*147 666*
	Axborot-kutubxona markazlari	*720 375*
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	23 799 404
12	Boshqa tashkilotlar	

Xalq deputatlari Baxmal tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Baxmal tuman mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjet soliq tushumlari**	**O‘tkazib beriluvchi daromadlar**	**Yuqori budjetdan ajratiluvchi tartibga soluvchi transfert miqdori**	**Xarajat**	**Farqi**
Baxmal tumani	105 546 246,0	0,0	0,0	105 546 246,0	0,0

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Baxmal tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Baxmal tumani	**571 000,0**

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsenti	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
Baxmal tumani		**1**	**48 708 000**
1	Barlos MFY	0.95	46 272 600.00
2	Baxmal MFY	0.95	46 272 600.00
3	Bog‘ishamol MFY	0.80	38 966 400.00
4	Bunyodkor MFY	0.85	41 401 800.00
5	Vatanparvar MFY	0.85	41 401 800.00
6	G‘allakon MFY	0.74	36 043 920.00
7	Gulbuloq MFY	0.95	46 272 600.00
8	Do‘stlik MFY	1.08	52 604 640.00
9	Istiqlol MFY	0.80	38 966 400.00
10	Qutlugobod MFY	1.08	52 604 640.00
11	Madaniyat MFY	0.74	36 043 920.00
12	Davlat MFY	0.85	41 401 800.00
13	Mug‘ol MFY	0.74	36 043 920.00
14	Muzbuloq MFY	0.74	36 043 920.00
15	Mustaqillik MFY	0.74	36 043 920.00
16	Navbahor MFY	0.85	41 401 800.00
17	Novqa MFY	0.85	41 401 800.00
18	Nurafshon MFY	0.74	36 043 920.00
19	Nushkent MFY	0.74	36 043 920.00

20	Oyqor MFY	0.85	41 401 800.00
21	Oqtosh MFY	1.08	52 604 640.00
22	Sangzor MFY	0.85	41 401 800.00
23	Saroy MFY	0.74	36 043 920.00
24	Temirqadam MFY	0.85	41 401 800.00
25	Tongotar MFY	0.85	41 401 800.00
26	Uzunbuloq MFY	0.74	36 043 920.00
27	O‘smat MFY	1.08	52 604 640.00
28	O‘rmonchi MFY	0.85	41 401 800.00
29	Fayzobod MFY	1.08	52 604 640.00
30	Fidokor MFY	0.74	36 043 920.00
31	Shodlik MFY	0.85	41 401 800.00
32	Yangibog MFY	0.85	41 401 800.00
33	Nurobod MFY	0.95	46 272 600.00
34	Muzbel MFY	0.95	46 272 600.00

Xalq deputatlari Baxmal tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-039-3-44-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsent	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘mda)
Baxmal tumani		**1**	**359,04**
1	Barlos MFY	0.85	305.18
2	Baxmal MFY	0.78	280.05
3	Bog‘ishamol MFY	0.77	276.46
4	Bunyodkor MFY	0.85	305.18
5	Vatanparvar MFY	0.83	298.00
6	G‘allakon MFY	0.70	251.33
7	Gulbuloq MFY	0.88	315.96
8	Do‘stlik MFY	0.80	287.23
9	Istiqlol MFY	0.80	287.23
10	Qutlugobod MFY	0.83	298.00
11	Madaniyat MFY	0.70	251.33
12	Davlat MFY	0.70	251.33
13	Mug‘ol MFY	0.70	251.33
14	Muzbuloq MFY	0.70	251.33
15	Mustaqillik MFY	0.70	251.33
16	Navbahor MFY	0.88	315.96
17	Novqa MFY	0.77	276.46

18	Nurafshon MFY	0.88	315.96
19	Nushkent MFY	0.70	251.33
20	Oyqor MFY	0.70	251.33
21	Oqtosh MFY	0.80	287.23
22	Sangzor MFY	0.70	251.33
23	Saroy MFY	0.70	251.33
24	Temirqadam MFY	0.80	287.23
25	Tongotar MFY	0.88	315.96
26	Uzunbuloq MFY	0.70	251.33
27	O‘smat MFY	0.85	305.18
28	O‘rmonchi MFY	0.77	276.46
29	Fayzobod MFY	0.80	287.23
30	Fidokor MFY	0.70	251.33
31	Shodlik MFY	0.85	305.18
32	Yangibog MFY	0.85	305.18
33	Nurobod MFY	0.80	287.23
34	Muzbel MFY	0.85	305.18